

ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTLARI
ILMIY-NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN
OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2020
6-son

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.
tdpujournal@mail.ru*

QORAQALPOG'ISTON O'ZBEK SHEVALARIDAGI TAOM NOMLARINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xudayarova M.T. – Nukus davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining morfologik usul bilan yasalishi misollar asosida talqin qilingan.

Kirish so'zlar: taom nomlari, Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari, qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasi, taom nomlarining yasalishi, affiks, so'z yasovchi, murakkab nomlar, taqlid so'z, anologiya hodisasi.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПИЩЕВЫХ ИМЕН В УЗБЕКСКОМ ГОВОРЕ КАРАКАЛПАКСТАНА

Худаярова М.Т. – преподаватель Нукусского государственного педагогического института, кандидат филологических наук

Аннотация. В статье рассматривается морфологическая структура названий блюд на узбекских диалектах Каракалпакстана на основе примеров.

Ключевые слова: названия блюд, узбекские диалекты Каракалпакстана, кипчакский говор, огузский говор, структура названия блюд, аффикс, словообразователь, составные существительные, подражательное слово, феномен аналогии.

MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FOOD NAMES IN THE UZBEK DISTRICT OF KARAKALPAKSTAN

Khudayarova M.T. – teacher of the Nukus State Pedagogical Institute, Candidate of philological Sciences

Annotation. The article examines the morphological structure of the names of dishes in the Uzbek dialects of Karakalpakstan.

Keywords: the names of meals, Uzbek dialect of Karakalpakstan, kipchak dialect, aguz dialect, structures of names of meals, affix, derivator, compound nouns, imitative word, analogy phenomenon.

Uzoq tarixiy taraqqiyot va xalq turmush tarzining turli jabhalari va qirralariga bog'liq holda, taom nomlarining hosil qilinishi o'ziga xos usullari, nom qo'yish asoslari, nominativ mezonlari ishlab chiqilgan va hayotga tadbiiq qilingan. Bunday nomlash xususiyatlari nafaqat taom nomlari sohasida, balki boshqa tarmoqlar terminologik tizimida ham ko'zga tashlanadi. Chunki inson tafakkuri uning obyektiv borliqqa o'z munosabatini aks ettirar ekan, insonning uni qurshab turgan atrof muhitga munosabatida va narsalarni yuzaga keltirishi, tabiatni o'zlashtirishi usullarida, narsalarni tayyorlash, vujudga keltirish xarakterlarida o'xshash motivlar, mushtarak faoliyat turlari ko'zga tashlanadiki, bu hol uning tildagi ifodasida ham, nom qo'yishdagi asoslarida ham o'z aksini topadi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi taom nomlarini atashda ham turli xil motivlar (asoslar) nom qo'yish bazasi, tamoyili vazifasini o'taydi. Ular quyidagilar:

1. Qanday mahsulotdan tayyorlanishiga qarab qo'yilgan nomlar (sytygrych, kədi gəmmə, ʻynashy, sək talqan);
2. Boshqa predmetlarga o'xshashligiga qarab qo'yilgan nomlar (qorazkampit, chang'alaq bərək, təkə bərək);
3. Iste'mol qilish usuliga ko'ra qo'yilgan nomlar: (ildirmə);
4. Tayyorlanish jarayoniga qarab qo'yilgan nomlar: (ʻyzmən, salma, djayman, qarma, qəvlə, chalg'ʻy) kabi.

Bu ko'rsatkichlar taom xillariga nom qo'yish usullari sifatida ko'zga tashlansa, ularning tuzilishi, taom nomlarining hosil qilinishi, murakkab nomlarning leksik-sintaktik qurilishi kabi masalalarni tahlil qilish ularning semantik xususiyatlarini, ma'nolarini nom qo'yilishining asoslarini aniqlashga yordam beradi. Shu sababli, har qanday lisoniy hodisaning tarkibini yasaliş manbalarini aniqlash bu til hodisasining kelib chiqish holatini, ma'no taraqqiyotida aniqlashga, oydinlashtirishga imkon beradi. Ammo shuni ham qayd qilish zarurki, barcha til elementlarining avvalgi ma'nolari, dastlab qanday ma'no asosida yuzaga kelish holatlarini aniq va to'la aniqlash mumkin bo'lmaydi.

Taom nomlarining tarkibini, yasalişini, hosil bo'lish ildizlarini aniqlashda til dalillariga tayanish katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida taom nomlari ba'zi ishlarda qisman o'rganilgan bo'lsa, ular ma'lum hududlar doirasi bilan cheklanib, bu sohadagi barcha leksik boyliklarni qamrab olgan va lisoniy tahlildan o'tkaza olgan emas.

Qoraqalpog'iston hududi o'zbek shevalarida qo'shimcha qo'shish orqali yasalgan taom nomlari keng o'rin olgan. Bu affikslar orqali taom nomlari hosil qilinadi. Bu xil usulda yasalgan taom nomlarida ularning qanday usulda tayyorlanganligi, nimadan tayyorlanganligi, qayerga va nimaga nisbat berilishi kabi ma'nolar anglashiladi. Bular jumlasiga -mə/ma, -ly/li, -mach, -q(-lyq), -maq/mək, -mysh, -daq kabi affikslar kiradi. Ular taom ma'nosini bildiruvchi so'zlar yasashda faol ishtirok qiladi.

-mə/ma affiksi eng qadimgi davrlardan hozirgacha taom ma'nosini bildiruvchi nomlar hosil qilishda eng faol hisoblanib, bu qo'shimcha yordamida XI asr yozma yodgorliklarida ham taom nomlari yasalganligini ko'rish mumkin. Masalan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu

lug'otit-turk" asarida suzma, qatma, bulg'ama, qatlama, uziytma, E.Fozilov lug'atida chırlama, qavurma¹, Alisher Navoiy asarlarida: Va qimizni va suzmani, va boxsumni va bo'zani dag'i turkcha ayturlar, va yana ba'zi yemaklardin qaymog' va qatlamani va bulamog' va qurut va ulobani ham turkcha ayturlar² kabi taom nomlarining uchrashi, bu qo'shimchani turkiy xalqlar tilida eng qadimgi shakl sifatida qo'llanib kelayotganligini ko'rsatadi.

-mā/ma affiksi orqali yasalgan taom nomlari qanday usulda taom tayyorlanishini, taomlarning tovushga taqlid so'zdan hosil bo'lishini, mo'ljallanganlik belgisini bildiruvchi kabi ma'nolarni bildiradi: asma, yymā, yzmā, syzmā, salma, qatirma, qao'shyrma, djarma, dog'rama//tuvrama, vag'lama kabi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, -ma affiksi murakkab qo'shimchalar jumlasiga kiradi.³ Uning tarkibi u qo'shimcha qo'shiladigan o'zakning tarkibiga qaraydi. Shu muallifning fikricha, bu affiks (i)m+a shakliga ega bo'lib, keyinchalik fonetik o'zgarishga uchragan va -ma shaklida qo'shila boshlagan. Aslida, u im+a shaklida kesim+a, bosim+a, burim+a (kesma, bosma, burma) so'zlarga qo'shilgan. Ba'zi so'zlarda esa bunday o'zgarishsiz to'g'ridan to'g'ri o'zakka qo'shilgan. Bu holat ot va sifat yasovchi bu affiks doim ham im+a shaklida qo'shilmaganligini, balki sodda affiks sifatida -ma shaklida qo'shilganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, bu oxiri unli bilan tugagan fe'l o'zaklariga qo'shilgan holatda ko'zga tashlanadi: qatlama, jarma, tog'rama, dımlāmā kabi. Oxiri undoshlar bilan tugagan ba'zi o'zaklariga -im+a shaklida qo'shiladi deyish biroz sun'iylikni yuzaga keltiradi: Masalan, qatirma (qatirim+a emas), gōmmā (ko'mim+a emas), jarma (jarim+a emas) so'zlaridagi kabi murakkab holda qo'shiladi, deyish biroz g'alati bo'lishi mumkin.

-mā/ma yasovchisi orqali yasalgan taom nomlari tarixan predmet belgisini ifodalab, aniqlovchi vazifasida qo'llangan bo'lsa ham, keyinchalik ular otlashib predmet nomini bildirgan. Shu sababli ham o'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida yzmān, quyman, djayman, syqman kabi qo'llaniluvchi taom nomlari ilgari yzmā kyrtik, quyma ash, djayma qatlama, siqma ash kabi birikmalarda atributiv funksiyada qo'llanilib, keyinchalik u otlashib yzmān, quyman, djayman shaklida qo'llana boshlagan.

N.Ikromova siqmon so'zidagi -mon affiksi -ma affiksining varianti shaklida bo'lsa ham, bu affiks o'zakka birlashib bitta morfemani tashkil qiladi deb ta'kidlaydi.⁴

Prof. A.G'ulomov -mon qo'shimchasi haqida shunday deydi: "Eski o'zbek tilida eng passiv so'z yasovchilardan bo'lgan -mon affiksi hozirgi zamon o'zbek tilida yangi so'z hosil qilish funksiyasini bajarmaydi, u ba'zi salmoqli so'zlar tarkibidagina uchraydi"⁵.

¹Фозилов Э. Шарқнинг машҳур филологлари. — Тошкент: Фан, 1971. — Б. 50-71.

²Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Фан, 1985. Т.IV. — Б. 52-81.

³Бердиалиев А. От ва сифат ясовчи -ма аффикси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1969. — №6. — Б. 74.

⁴Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: Автореф. ... канд. дисс. филол. наук. — Ташкент: УзССР АН Институт языка и литературы имени А.С. Пушкина, 1983. — С. 15.

⁵Ғуломов А. Ўзбек тилида -мон аффикси // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1961. — №3, — Б. 20-22.

-mon qo'shimchasi fe'llarga qo'shilganda, o'sha o'zakdan anglashilgan harakatning bajarilishi natijasida hosil bo'lgan tayyorlanish jarayoni shu ish bilan xarakterlanadigan predmetni, odatda taom nomini bildiradi¹. Masalan, uzmən, quyman, jayman, siqman kabi.

Bizningcha, bu taom nomlari siqman so'ziga analogiya hodisasi natijasida paydo bo'lgan. Siqman taom nomi o'rganilayotgan hududda alohida ovqat turi sifatida qadimdan qo'llanib kelmoqda. U siqma osh sifatida predmet belgisini ifodalab emas, balki predmet nomini bildirishi Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida allaqachonlar yuz bergan. Boshqa ovqat turlari ham analogiya hodisasi ta'siri bilan shunday atalish holatiga o'tgan va natijada uzmən, jayman, quyman taom nomlari paydo bo'lgan.

Demak, yuqoridagi uzmən, jayman, quyman kabi taom nomlaridagi -mon affiksi siqmon so'ziga analogiya tarzida ushbu taom nomlariga qo'shilgan va ular hozirgi davrda tub nomlar sifatida tushuniladi.

O'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida -mə/ma affiksi orqali yasalgan tarkibli birikma taom nomlarining birinchi komponenti belgi bildiruvchi so'z bilan ifodalanishi ko'p uchraydi: asma shorpa, salma kyrtik, yzmə kyrtik, syzmə palav kabi.

-ly/li affiksi bilan yasalgan taom nomlari o'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida murakkab nomlar tarkibida aniqlovchi komponent sifatida qo'llaniluvchi so'zlarga qo'shilib taomlarning xilini, masalliq turini, mazkur taomning masallig'i nimadan iborat ekanligini bildiradi: sytly gədjə, qatyqlы məshəva, kədili kyrtыk, qarynly palav, beyыly palav, gəshli nan, pyayazly qatlama, qavunly chəlpək, qatyqlы chəlpək kabi.

-mach qo'shimchasi hozirgi davrda taom nomlarini bildiruvchi so'zlar yasashda kammahsul affiksidir. Uning qo'llanishi va so'z yasash doirasi ko'proq til tarixi va uning qadimgi davrlari bilan bog'liq. Bu qo'shimcha bilan yasalgan taom nomlari tilimiz tarixiga oid yozma yodgorliklarda uchraydi. Masalan, tutmach, qag'urmach², qovurmoch³, qovurmach, kazlamach, bazlamach⁴, o'rkumach⁵ kabi.

Hozirgi davrda tilshunoslikda bu qo'shimchani kelib chiqishi, tarkibi va genezisi haqida birmuncha qarama-qarshi noaniq fikrlar mavjud. Jumladan, qirg'iz tilshunosi B.O.Oruzboyeva -moch affiksi o'zi qo'shilib kelgan so'zga butunlay kirishib, assimitatsiya natijasida hosil bo'lgan, degan fikrga keladi.⁶

Boshqa bir tilshunoslar esa, bu qo'shimcha murakkab qo'shimcha hisoblanib -ma va -ch affikslarining qo'shilishidan hosil bo'lgan degan fikrni o'rta tashlaydi.⁷

¹Ўша мақола. – Б. 21.

²Кошғарий М. Девону луғотит турк. 3 томлик. – Тошкент, 1960. Т.I. – Б. 454.

³Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 135

⁴Чингий М.Ё. Келурнома. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 81-95.

⁵Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 720.

⁶Орузбаева Б.О. Словообразование в киргизском языке. – Фрунзе, 1964. – С. 74-75.

⁷Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. – М.: 1966. – С. 358-363; Ғуломов А. Сўзлар ҳаётдан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. – №6. – Б. 57-58.

A.M.Sherbak o'z tadqiqotida bu qo'shimcha -m affiks va osh so'zining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lishi mumkin, deydi ¹.

Ayrim tilshunoslar esa -moch qo'shimchasining mavjudligini inkor qilishgan. Umoch taom nomida qo'shimcha yo'qligini, tarixan bunday so'zlar ikki o'zakning qo'shilishidan yuzaga kelganligini va fonetik o'zgarishlar sababli keyingi holga kelib qolganligi haqidagi fikrlarini bildirishgan. Bu so'zlar tarixan umoch (un+osh), qirmoch (qirma+osh), qovurmoch (qovurma+osh), ko'moch (ko'mma+osh) shakllaridan hosil bo'lganligini qayd etishgan².

Bizningcha, so'nggi fikrlar haqiqatga yaqinroq. Chunki yuqoridagi taom nomlari nominatsiya tamoyiliga ham to'g'ri keladi, ya'ni bu taomlarning nimadan tayyorlanganligi (un+osh), qanday tayyorlanganligi (ko'mma+osh, qovurma+osh) aniq ko'rsatib turadi.

O'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida ham ovmach, qatırmach, qovurmach//quvurmach kabi taom nomlari qo'llanadi.

-q (-ыq, -ik) affiksi. Bu qo'shimcha taom nomlarini yasashda kammahsuldir. Masalan, pytraq, turaq, jyzzyq, chyykildavik kabi. Bu qo'shimcha bilan yasalgan pytraq (bodroq) taom nomi pitra- fe'liga -q ot yasovchi qo'shimcha qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Chyykildavik taom nomi esa chyykildə- taqlid so'z hosil bo'lgan fe'l asosiga -v harakat nomi shakli, -ik ot yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida yasalgan bo'lib, sut, guruch va qovoqdan tayyorlanadigan taom nomini bildiradi.

O'rganilayotgan hududda -chik affiksi bilan yasalgan taom nomi ham uchraydi: masalan, turkolog olim E.V.Sevortyan "irimchik" so'zi qipchoq guruhiga xosligini, iri- qismi yiri- bilan bir o'zakka ega ekanligini, iri so'zi achimoq, suzmaga (tvorogga) aylanmoq ma'nolarini bildirishini, iri- fe'liga -m shaxs-son qo'shimchasi, -chik kichraytirish affiksi qo'shilganini ta'kidlaydi³.

O'zbek adabiy tilida ko'p qo'llanadigan -maq(-mæk), -g'ы, -мыш kabi affikslar yordamida yasalgan taom nomlari Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida kam uchraydi. Masalan, quymaq, gidirmæk, chalğ'ы, qurмыш kabi.

Taom nomlarini tadqiq qilgan N.Ikromova boshqa hududlar aholisi tilida -i affiksining yasovchilik xususiyati haqidagi fikrini ilgari suradi.⁴ Bu qo'shimchaning a) mazkur taomning joy nomlari bilan bog'liq: qobuli sho'rva, qashqari patir, buxori jarkop; b) atoqli otlardan hosil bo'lgan: po'loti non, qosimjoni non; v) taomning muayyan o'rin va iste'mol qilish usuli bilan bog'liq: guzari palov, bozori non, bozori kulcha; g) taomni tayyorlash asbob-uskunalari bilan bog'liq: tandiri kabob, tandiri barra atamalarini yasashi haqida misollar keltirgan. Bu qo'shimcha bilan so'zlar

¹Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М-Л.: 1962. – С. 128.

²Маматов Н. Этимологик мураккаб сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – №1. – Б. 8.

³Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. - М., 1974. – С. 373.

⁴Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: Дис. ... канд. филол. наук. УзССР АН Институт языка и литературы имени А.С. Пушкина, –Ташкент: 1983. –С. 135.

yasalishi fors-tojik tili ta'sirida, ya'ni forsha izofa ta'sirida yuz bergan (zangori ekran – oynayi jahon). Biroq, -i qo'shimchasi bilan taom nomlarining yasalishi Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida deyarli qo'llanilmaydi.

Yuqoridagi yasama asosli taom nomlarining yasalish xususiyatiga ko'ra aytish mumkinki, Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida turkiy qatlamga oid ko'rinishlari ko'p qo'llanadi, fors-tojik tiliga xos yasalgan (-i, -xo'r, -ona) taom nomlari deyarli uchramaydi.